

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI STORYTELLING (HIKROYACHILIK) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Boymurodova Sarvinoz Saparali qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: XXI asrda ta'lim tizimi doimo rivojlanib, yangi texnologiyalarshaklida hayotimizga kirib kelmoqda. Bu o'zgarishlar o'quv jarayonidagi an'anaviy usullar va zamonaviy innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish, ularning muloqotda faol bo'lishini ta'minlash, dunyoqarashini kengaytirishda, ayniqsa, raqamli texnologiyalarning, xususan, digital storytelling texnologiyasining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli storytelling texnologiyasi natijasida o'quvchilarning og'zaki nutq faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, ijodiy tafakkurini shakllantirish, axborot texnologiyalaridan puxta foydalanishni o'rgatish imkoniyati kengayadi.

Kalit so'zlar: raqamli storytelling, og'zaki nutq, boshlang'ich sinf, kommunikativ kompetensiyalar, o'quvchilar, nutq rivoji, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodika, ijodiy tafakkur, axborot texnologiyalari.

Raqamli hikoyachilik texnologiyasi — bu an'anaviy hikoya, og'zaki so'zlashuv, vizual obraz yaratish va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish orqali muloqot qilishning yangi usulidir. Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy tajribalarni ifodalay olish, suhbat qurishda erkin va ravon nutq tuza olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish natijasida, avvalo, har bir o'quvchi o'z fikrini to'liqroq va aniq ifodalay oladi, og'zaki nutqda til boyligini oshiradi, mantiqan o'ylash, savol-javob qilish, voqealarni ketma-ketlikda hikoya qilish kabi asosiy kommunikativ kompetensiyalar hosil qilinadi. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi yordamida ona tili va adabiyot darslarida mavjud mavzularni o'zga yo'sinda, ya'ni virtual muhiti yordamida yoritish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi. Raqamli storytelling texnologiyasidan foydalangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasi hamda ijodiy tafakkuri yanada rivojlanadi. Chunki zamonaviy bolalar texnologik vositalardan tezda o'zlashtira olishadi, ularni turli maqsadlarga yo'naltirish, xususan, hikoyalarni audio, video, animatsion ko'rinishda tayyorlash orqali o'zining tarbiyaviy, estetik va intellektual salohiyatini kengaytirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilarga og'zaki so'zni ifodalash, hikoya qilish, so'zlarni aniqlik va to'g'rilik bilan talaffuz qilish hamda yangi so'z va iboralarni o'rganish ko'nikmalari beriladi [1].

Raqamli hikoyachilik o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qila oladi. O'quvchilar interaktiv vositalar, prezentatsiyalar, multimediali dasturlar yordamida o'z ijodiy ishlarini taqdim etish orqali o'z-o'zini anglash, o'ziga ishonch hosil qilish, jamoada ishlash, shuningdek, boshqa o'quvchilar fikrini eshitish va muhokama qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ular bir-birlari bilan o'zaro do'stona aloqa o'rnatib, yangi bilimlarni birgalikda o'zlashtiradilar. Raqamli storytelling texnologiyasi orqali o'quvchilarga dars mavzusiga mos hikoyalarni yaratish, ularni kompyuter yoki telefon yordamida eshitish, ko'rish va mulohaza qilish imkoniyati taqdim yetiladi. Shuningdek, hikoya yaratuv sohasidagi erkin ijodkorlik, rang-baranglik va yangicha ifoda usullarini rivojlantirish orqali bolalarning og'zaki nutqi, so'z boyligi va so'zlashuv malakasi mustahkamlanadi. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi, eng asosiysi, bolaning ta'lim jarayoniga faol jalb etuvchi omil hisoblanadi. O'qituvchi raqamli storytelling texnologiyasi asosida mavzuga oid materiallarni ilgari surganda, avvalo, o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini e'tiborga olishi muhim. Shu bilan birga, pedagog zamonaviy digital platformalardan foydalanib, interaktiv darslarni tashkil qila olishi, o'quvchilarga yangi bilimlarni aniq, ilmiy asoslangan va manzilli yetkazib bera olishi lozim. O'quvchini ko'proq suhbatga jalb qilish, hikoya tuzishga undash, uni audio va video ko'rinishda ifodalash, ekran orqali ko'rsatib, tahlil qilish orqali ham o'quvchining og'zaki nutqi rivojlanadi. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi jarayonida o'quvchi hikoya yaratish bosqichida avvalo o'z fikrlarini og'zaki tarzda ifoda etadi, so'ngra uni yozma shakliga keltiradi, keyin esa texnologik vositalardan foydalanib, multimediya mahsuloti sifatida taqdim etadi. Shu projekt davomida o'quvchi loyihaviy faoliyatda qatnashadi, guruh bilan yoki mustaqil tarzda ishlaydi, kommunikativ va raqamli ko'nikmalarini uyg'unlashtira boradi [2].

Raqamli storytelling texnologiyasi orqali o'quvchi o'z nutqini auditoriya oldida ravon, ifodali so'zlashga mashq qiladi. Bu bilan ular o'z fikrini ehtiyotkorlik bilan, mukammal va lo'nda yetkazishni o'rganadi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish juda muhim, chunki bog'cha va maktab bosqichidagi bola taraqqiyotining eng muhim davri hisoblanadi. Raqamli hikoyachilik, ayniqsa, motivatsiya va qiziqishni oshiradi, bolalarni virtual olam orqali yangi bilimlar sari yetaklaydi. Bugungi yosh avlod uchun raqamli savodxonlik nafaqat axborotlarni qidirish yoki foydalanish, balki ushbu axborotlarni ijodiy qayta ishlash, o'z fikri va his-tuyg'ularini zamonaviy texnologiyalar orqali ommaga taqdim qila olish qobiliyatini ham bildiradi. Raqamli storytelling texnologiyasi o'qituvchilardan darsni puxta va aniq rejalashtirish, texnologik vositalardan samarali foydalanishni, minglab turli formatdagi hikoyalarni yarata olishni talab etadi. Bundan tashqari, ular o'quvchilarning nutqiy va axborot savodxonligini shakllantirish uchun doimiy izlanishda bo'lishi lozim [3].

Raqamli hikoyachilik texnologiyasining o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi asosiy ustunliklaridan biri shuki, bunda bolalar o'zini mustaqil ijodkor sifatida namoyon eta oladi, so'z boyligini oshiradi, tahliliy va mantiqiy fikrlashni kuchaytiradi, tezda o'zlashtirgan axborotni boshqa sohalarga ham tatbiq etadi. Ular hikoya tahlil qilish, savol-javob vositasida yangi bilimlarni o'zlashtiradi, tajriba almashishni o'rganadi. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarda media savodxonlik, axborot bilan ishlash, kompilyatsiya va tahrir qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi bolalarni hikoya qilish yo'nalishida rag'batlantirar ekan, zamonaviy axborot muhiti imkoniyatlarini to'liq ishga soladi. Natijada, o'quvchilar og'zaki so'zlashuvda o'zaro aloqa va muloqotni erkin va aniq yo'lga qo'yadi. Raqamli storytelling texnologiyasi asosida o'tiladigan darslarning samaradorligi an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Chunki bu holatda o'quvchi faol ishtirokchi, bilimlarni o'zlashtiruvchi va yangi g'oyalar egasi sifatida maydonga chiqadi. O'quvchi o'z ijodidan bahramand bo'ladi, natijada og'zaki nutq, so'z kulturasini va ifodali fikrlashning eng muhim bosqichlarini bosib o'tadi. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi jarayonida bola o'z qobiliyatiga ishonch hosil qiladi, faol muloqotchi sifatida shakllanadi, bilimlarni zamonaviy axborot muhitida kengaytiradi. Bu orqali u o'z yoshiga mos, hayotiy voqealarni tahlil etish, voqealar ketma-ketligini aniq va to'g'ri bayon qilish, mustaqil savol va javoblarni bera olish ko'nikmalariga ega bo'ladi [4].

Raqamli hikoyachilik texnologiyasining asosiy jarayonida o'quvchilarning mustaqillik, jamoada ishlash, tushunganini erkin ifodalash, og'zaki nutqini boyitish yo'nalishida salmoqli natijalarga erishiladi. Ayniqsa, interaktiv darslar, audio va video formatlarda tayyorlangan o'quv loyihalari orqali bolalar o'z dunyoqarashini kengaytiradi. O'quvchilar raqamli hikoyachilikdan foydalangan holda ona tilini yanada ravon va to'g'ri so'zlashga harakat qiladilar, til boyligi yanada boyiydi, nutqda aniqlik va ifodalilik darajasi ortadi. Raqamli storytelling texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning og'zaki nutq rivojiga sabab bo'luvchi omillar doim e'tiborda bo'lishi kerak. Shulardan biri – og'zaki nutqda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, gaplarda fikrni aniq ifodalash, qat'iy qoidalarni yaxshi bilish, mavzu asosida mustaqil hikoya tuza olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bu texnologiyaning hayotga joriy etilishi darslarni yengil va qiziqarli, bolalarga mos va qulay tarzda o'qitish imkonini beradi. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi yordamida bolalar axborotni ishonchli manbadan to'g'ri oladi, uni o'z tajribasi bilan boyitadi, asosan, ona tilida mukammal ifoda qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda og'zaki nutq rivoji bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati ham shakllanadi. O'quvchilar bo'sh vaqtlarini, yaratilgan ijodiy ishlarini internet muhitida ko'rsata oladi, keng auditoriyaga taqdim qiladi. O'qituvchilar uchun esa raqamli hikoyachilik texnologiyasi eng zamonaviy, samarali va ijtimoiy faollikka undovchi metod sifatida e'tirof etiladi. Bu metod orqali ta'lim jarayonida yuqori

natijalarga erishish, bola shaxsini tarbiyalash, ularni jamiyatga faol a'zo qilib yetishtirish mumkin. O'quvchilar o'z nutqi va tafakkuri orqali kelajakda jamiyatimizda faol, innovatsion va taraqqiyotga munosib insonlar bo'lib yetishadilar [5].

Xulosa:

Raqamli storytelling texnologiyasini boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda qo'llash, zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning eng zamonaviy va samarali variantlaridan biridir. Mazkur texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish, bolalarning nutq madaniyati, ijodiy tafakkuri va ijtimoiy faolligini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi. Raqamli vositalar yordamida yaratilayotgan hikoyachilik amaliyotlari, farzandlarning mustaqil va ijodiy ishlash, mustahkam bilimlarga ega bo'lish, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirish yo'lidagi qadamlarini mustahkamlaydi. Bu orqali og'zaki nutq rivoji uchun boy muhit shakllanadi, zamonaviy ta'lim talablariga to'la mos innovatsion metodikalar joriy etiladi. Natijada, boshlang'ich ta'lim sifatini yuksaltirish, bolalarda raqamli savodxonlik va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Арслонова М.Р. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi vositasida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish. — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2022.
2. Бахронов III. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. — Toshkent: "Fan va taraqqiyot", 2020.
3. Yakubova M.Y. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq malakasini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni. — "Pedagogika va psixologiya", 2022.
4. Mazhidova M. Raqamli hikoyachilik texnologiyasi. Respublika ilmiy-uslubiy markazi, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "2023–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha strategik konsepsiya". — Toshkent, 2023.
6. Албаёрова Г. Интерактив ва рақамли технологиялар мактаб таълимида, Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
7. Sharipov U. Boshlang'ich ta'limda og'zaki nutqni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari. — Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiali, 2020.